

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar-dekabrda Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 36 470,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 11 233,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 99,4 % ni tashkil qildi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMni shakllantirishda Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 7,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	Mlrd. so'm		2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan, % da
	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr	
I. YaHM	27 962,2	36 470,1	101,4
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	26 428,3	33 836,9	101,5
Mahsulotlarga sof soliqlar	1 533,9	2 633,2	100,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	26 428,3	33 836,9	101,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10 674,6	12 317,5	101,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 834,2	12 568,5	97,3
Sanoat	7 205,6	10 506,3	94,4
Qurilish	1 628,6	2 062,2	110,2
Xizmatlar	6 919,5	8 950,9	106,7
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 573,3	1 877,4	104,5
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 274,0	1 504,1	110,6
Boshqa xizmatlar	4 072,2	5 569,4	106,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o`shish sur`atlari YaHM o`shishida asosiy omil bo`lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 101,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 36,4 %), qurilish – 110,2 % (6,1 %), xizmatlar – 106,7 % (26,5 %) ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining o`shish sur`atida esa kamayish yuz berdi va 94,4 % (YaHM tarkibida ulushi 31,0 %) ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`shish sur`atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 92,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHM tarkibidagi ulushi 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga (40,4 %) nisbatan 4,0 % ga tushib 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 36,4 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 2018 yilning shu davriga (33,5 %) nisbatan 3,6 % ga oshib 37,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi va 2018 yil yanvar-dekabr (26,1 %) bilan taqqoslaganda 0,4 % punktga ko`paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-dekabr




2019 yil yanvar-dekabr



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,5 % ni (2018 yil yanvar-dekabrda – 6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,4 % ni (4,8 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 16,6 % ni (15,3 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi

K. Avloqulov (75) 221-16-42